

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XAMIDOVA HABIBA MURAT QIZI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI XOM ASHYOLAR
ASOSIDA YUQORI EKSPLOATATSION XUSUSIYATGA
EGA BO'LGAN QURILISH G'ISHTINI ISHLAB CHIQRISH**

02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Xamidova Habiba Murat qizi

O'zbekiston Respublikasidagi xom ashyolar asosida
 yuqori ekspluatatsion xususiyatga ega bo'lgan qurilish
 g'ishtini ishlab chiqarish 3

Xamidova Xabiba Murat kizi

Разработка строительного кирпича с высокими
 эксплуатационными свойствами на основе местных сырьевых
 материалов Респубблики Узбекистан..... 21

Khamidova Habiba Murat kizi

Development of building bricks with high
 performance properties based on local raw materials
 of the Republic of Uzbekistan..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
 List of published works 44

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XAMIDOVA HABIBA MURAT QIZI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI XOM ASHYOLAR
ASOSIDA YUQORI EKSPLUATATSION XUSUSIYATGA
EGA BO'LGAN QURILISH G'ISHTINI ISHLAB CHIQRISH**

02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/T1285 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (tkti.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aripova Mastura Xikmatovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Iskenderov Axmed Maksetbayevich
texnika fanlari doktori, professor

Shermatov Javoxir Zafarovich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli Ilmiy kengashning «2» 05 2024 yil soat 9 daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90; ye-mail: tkti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (779 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani A.Navoiy ko'chasi, 32. Tel.: (99871) 244-79-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «29» 03 kuni tarqatildi.

(2024 yil «29» 03 daqi № 419 - raqamli reyestr bayonnomasi).



S.M. Turobjonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor, akademik

X.I. Kadirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
t.f.d., professor

Z.A. Babaxanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar rais o'rinbosari,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyoda sof reagentlar asosida olingan materiallar kosmonavtika, raketsozlik, samolyotsozlik, mashinasozlik, kimyo, tibbiyot va maishiy xo'jalikda keng foydalanilmoqda. Yuqori ekspluatatsion xususiyatli materiallarni qurilish sohasida qo'llash zamonaviy bino va inshootlarning tashqi ta'sirlarga chidamliligi va dekorativ holatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar AQSh, Xitoy, Rossiya, Yaponiyada yuqori ekspluatatsion xususiyatlarga ega qurilish g'ishtlari ishlab chiqarishda ma'lum yutuqlarga erishilib, resurs va energiyatejamkor texnologiyalarini joriy qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda yuqori ekspluatatsion xususiyatlarga ega qurilish g'ishtlari olishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada sho'ralash kuzatilmaydigan g'ishtlari retsepturasini ishlab chiqish, ularning kimyoviy-mineralogik tarkiblarini o'rganish, xom ashyo bazasini kengaytirish, atrof-muhit ta'siriga chidamliligini oshirish, yuqori ekspluatatsion xususiyatlarga ega qurilish g'ishtlar olish texnologiyasini takomillashtirish va sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan keng chora-tadbirlar natijasida kimyo va qurilish materiallari sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish, xomashyolarning yangi zahiralarini yaratish, ular asosida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish borasida muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, qurilish materiallari ishlab chiqarishni ikki baravar oshirish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu maqsadlarda mahalliy Jordanak koni ustki qatlamining fizik-kimyoviy va texnologik xossalariga qo'shilgan Toshkent soz tuprog'i ta'sirini aniqlash, qurilish materiallarining xomashyo bazasini kengaytirish va sifatini oshirish, yuqori ekspluatatsion xususiyatiga ega bo'lgan qurilish g'ishtlar ishlab chiqarishning sanoat texnologiyalarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-son «Uy-joy qurilishi va qurilish sohasini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019 yil 1 maydagi PQ-4302-son «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmoni

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yuqori sifatli qurilish g'ishtlarining tarkiblarini ishlab chiqish, tuzilishi va xossalarni yaxshilash muammolari bilan dunyoga mashhur materialshunos olimlar jumladan: Yardcastle J., Gerl S., Handle F., Sundermena E., Abbas Mohajerani, T. Buchner, T. Kiefer, W. Gaggl, L. Zelaya-Lainez, N. Phonphuak, M.J. Munir, P. Munoz, M. Anderson, Smaley I.J., Levit I.M., Vajinskiy A.T., Vernigor A.M., Efimov A.L., Kondratenko V.A., Kuzmin V.V., Xusnullin M.Sh., Abdraximova E.S., Mustafin S.P.V.R., Mustafin S.P.V., Budnikov P.P., Burmistrov V.N., Buruchenko A.E., Vereshchagin V. I., Knigina G.N., Saibulatov S.J., A.Z. Zolotarskiy, E.Sh. Sheinman, M.O. Yushkevich, D.N. Poluboyarinov, V.S. Bakunov, V.L. Balkevich, I.Ya. Guzman, E.S. Lukin, R.Ya. Popilskiy, B.S. Skidan va boshqa olimlar shug'ullanib, yuqoridagi muammolarni hal qilishda katta hissa qo'shganlar.

Yurtimiz olimlari ham qurilish materiallarining tarkibini ishlab chiqish, tuzilishi va xossasini yaxshilash bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Bu yo'nalishda Samigov N.A., To'laganov A.A., Xodjavev S.A., Ismatov A.A., Aripova M.X., Abdusattarov Sh.M., Yunusov M.Yu., Odilxo'jayev A.I., Qosimov I.U., Sirojiddinov N.A., Talipov N.X., Gaziev U.A., Mingulova F.A., Babaev Z.K., Shernazarova M.T., Yakubov T.N., Mavlyanov G.A. kabi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, muhim natijalarga erishganlar.

Shu bilan birga, xom ashyo bazasini kengaytirish, qurilish g'ishtlarining atrof-muhit ta'siriga chidamliligini oshirish uchun qurilish g'ishtlarining yangi tarkiblarini ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishni o'z ichiga olgan qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Avvalgi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bu boradagi muammolar yetarlicha hal etilmagan va chuqurroq izlanishlarni talab qilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining PZ-20170920226 «O'tga chidamli g'isht ishlab chiqarish uchun xom ashyo va materiallarni mahalliyashtirish» (2018-2020 yy.) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy xomashyo asosida yuqori ekspluatatsion xususiyatga ega qurilish g'ishtlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Jardanak koni ustki qatlamining fizik-kimyoviy va texnologik xossalarni o'rganish;

Toshkent soz tuprog'ining fizik-kimyoviy va texnologik xossalarni o'rganish.

Jardanak koni ustki qatlamining fizik-kimyoviy va texnologik xossalari qo'shilgan Toshkent soz tuprog'i ta'sirini o'rganish;

ustki qatlam jinsi - Toshkent soz tuprog'i kompozitsiyalaridan tashkil topgan qurilish g'ishtlarining fizik-texnik xossalari, tuzilishi va fazaviy tarkibini o'rganish;

yuqori ekspluatatsion xususiyatli qurilish g'ishtini olishni ta'minlaydigan ustki qatlam - Toshkent soz tuprog'i kompozitsiyalaridagi nisbatni tajriba yo'li bilan aniqlash;

Jardanak koni ustki qatlami asosida qurilish g'ishtlarini olishning texnologik parametrlarini ishlab chiqish;

tadqiqot natijalarini sinovdan o'tkazish va amalga oshirish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida tabiiy xom ashyo - Jardanak konining ustki qatlami va Toshkent soz tuprog'i, shuningdek, ustki qatlam-Toshkent soz tuprog'i kompozitsiyalariga issiqlik bilan ishlov berish natijalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida tabiiy va termik ta'sirdan keyingi alyuminosilikat xomashyosining fizik-kimyoviy va strukturaviy o'zgarish jarayonlari tashkil etgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar jarayonida tabiiy va termik ta'sirdan keyingi alyuminosilikat xom ashyosining fizik-kimyoviy va strukturaviy tahlil qilishning zamonaviy (rentgenflyuorestsentli, rentgenografik, termogravitometrik, IQ-spektroskopik, elektron mikroskopik) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Jardanak koni ustki qatlamining kimyoviy tarkibi: 44,9-SiO₂; 28,36-Al₂O₃; 5,94-Fe₂O₃; 1,58-CaO; 0,39-MgO; 0,65-Na₂O; 5,45-K₂O; 12,7-k.y. aniqlanib, ustki qatlam aluminosilikat jinsdan iboratligi isbotlangan;

alyuminiy oksidi miqdori bo'yicha xom ashyo yarim kislotali jinslar, temir oksidi miqdori bo'yicha yuqori miqdordagi rang beruvchi komponentlar mansubligi asoslangan;

Jardanak koni ustki qatlamining mineralogik tarkibida muskovit, kaolinit, kvarts, dala shpati kabi minerallar mavjudligi isbotlangan;

soz tuproq jinslari yuqori miqdordagi karbonatlar va eruvchan tuzlar mavjudligi aniqlanib, g'ishtlarning ekspluatatsiya davrida paydo bo'ladigan sho'ralash jarayonining sababi ekanligi isbaotlangan;

Jardanak koni ustki qatlamining keramik massa tarkibiga kiritilishi karbonatli birikmalarning ta'sirini neytrallashi aniqlanib, ustki qatlam kristall hosil bo'lish jarayonida qurilish g'ishtining mustahkamligini ta'minlovchi mullit va kvars minerallarining miqdorini oshirishi isbotlangan;

«ustki qatlam-soz tuproq» kompozitsiyasi 80-90 % ustki qatlam va 10-20 % soz tuproqdan iborat, minimal qisqarish, yuqori mustahkamlik va sovuqqa bardoshli, sho'rlamaydigan qurilish g'ishtlari ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yuqori ekspluatatsion xususiyatiga ega bo'lgan qurilish g'ishtlarining tarkibi Jardanak konining ustki qatlami va Toshkent soz tuprog'i asosida ishlab chiqilgan.

Jardanak konining ustki qatlami va Toshkent soz tuprog'i kompozitsiyasi asosida qurilish g'ishtlarini olishning texnologik parametrlari ishlab chiqilgan.

Jardanak konining ustki qatlamidan foydalanish silikat sanoatini yangi xomashyo bilan ta'minlaydi va bu konning xom ashyosidan kompleks foydalanish imkonini berishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tahlilda zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot uslublari, yuqori ekspluatatsion xususiyatga ega qurilish g'ishtlarini tayyorlash retsepturasi va texnologiyalarini sanoatga joriy qilinishi va ishlab chiqarilish bilan asoslangandir.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Jardanak koni ustki qatlamining kimyoviy tarkibi ustki qatlam alumosilikat jinsdan iboratligi, soz tuproq jinslari tarkibidagi karbonatlar va eruvchan tuzlar g'ishtlarning ekspluatatsiya davrida paydo bo'ladigan sho'ralash jarayonining sababi ekanligi, Jardanak koni ustki qatlamining keramik massa tarkibiga kiritilishi karbonatli birikmalarning ta'sirini neytrallashi, ustki qatlam kristall hosil bo'lish jarayonida qurilish g'ishtining mustahkamligini ta'minlovchi mullit va kvars minerallarining miqdorini oshirishi, shuningdek, yuqori mustahkamlik va sovuqqa bardoshli, sho'rlamaydigan qurilish g'ishtlari ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish va takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Jardanak konining ustki qatlami va Toshkent soz tuprog'i asosidagi «ustki qatlam-soz tuproq» kompozitsiyasidan sho'rlanish kuzatilmaydigan hamda yuqori ekspluatatsion xususiyatga ega qurilish g'ishtlari ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy xomashyo asosida yuqori ekspluatatsion xususiyatga ega qurilish g'ishtlar ishlab chiqish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

standart talablarga mos sho'rlamaydigan qurilish g'ishtlari ishlab chiqarish texnologiyasi «Asia ceramica invest» MChJning «2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2023 yil 21 avgustdagi № 05/15-1664-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 250×120×65 mm o'lchamlardagi, tannarxi 25 - 27 % gacha arzonlashtirilgan qurilish g'isht ishlab chiqarish imkonini bergan;

Sanoat chiqindilari va soz tuproq asosida optimal tarkibli qurilish g'ishtlari ishlab chiqarish texnologiyasi «Asia ceramica invest» MChJning «2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2023 yil 21 avgustdagi № 05/15-1664-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 11,4 - 12,4 % suv yutuvchan, 100F sovuq bardosh, 200M siqilishga mustahkam qurilish g'ishtlari ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari ma'ruza ko'rinishida 10 ta xalqaro konferensiya va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy maqola chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya

etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola, shu jumladan, 4 tasi xorijiy, 2 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan bo'lib, 107 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Qurilish g'ishti tarkibining o'zgarishi tendensiyasi**» deb nomlangan **birinchi bobida** ilmiy muammoning ishlab chiqarish tizimidagi turli hal etuvchi omillarning zamonaviy texnologiya tarafdin rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Bunda qurilish g'ishti olish texnologiyalarini, xomashyolarini, olinish usullari, qo'shilgan turli qo'shimchalar va ularning qurilish g'ishti xossalariga ta'siri, qo'llanilish sohalari, qurilish g'ishti ishlab chiqarish texnologiyasining ayrim tarmoqlarini modernizatsiya qilishga oid muammolar holatining sharhi hamda qurilish g'ishtiga nisbatan qo'yilgan normativ talablar keltirilgan. Qurilish g'ishtining fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarini yaxshilashga qaratilgan usullarni yaratish bo'yicha olib borilgan ko'pchilik ilmiy tadqiqotlar keltirilgan. Adabiyotlar tahlili, sarf-harajatlar uchun yirik kapitalni talab qilmaydigan yangi usullarni yaratish muammosi mavjudligini ko'rsatib turibdi.

Qurilish g'ishtlari ishlab chiqarishda yuqori sifatli tuproq xomashyo konlarining kamligi, turli sanoat va inson faoliyati chiqindilaridan foydalanish imkoniyati va o'zlashtirilayotgan konning xomashyosidan kompleks foydalanishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi ifodalangan.

Dissertatsiyaning «**Izlanish ob'ektlari, olingan moddalarning fizik-kimyoviy xossalari, olinish va tadqiq qilish usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarda qo'llanilgan usullarning bayoni keltirilgan. Xomashyoning kimyoviy tarkibi, fazaviy tarkibi va strukturaviy xususiyatlarini o'rganish maqsadida namunalar zamonaviy fizik-mexanik tahlil usullaridan rentgenflyuorestsentli, rentgenografik, termogravitometrik, IQ-spektroskopik, elektron-mikroskopik, kimyoviy va boshqa bir qator an'anaviy usullardan foydalanib tahlil etildi.

Dissertatsiyaning «**Jardanak koni ustki qatlami va Toshkent soz tuprog'ining fizik-kimyoviy xossalari va tuzilishini tadqiq qilish**» deb nomlangan uchinchi bobida Jardanak konining ustki qatlami va Toshkent soz tuprog'ini kimyoviy, mineralogik tarkibi, fizik-mexanik va texnologik xossalarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari bayon etilgan.


Jardanak konining ustki qatlamining ko'rsatkichlari. Jardanak konining ustki qatlamining kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Jardanak konining ustki qatlamining kimyoviy tarkibi

Oksidlarning massa ulushlari, %							
SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	CaO	MgO	Na ₂ O	K ₂ O	p.p.p.
44,9	28,36	5,94	1,58	0,39	0,65	5,45	12,7

Jardanak konining ustki qatlamini termogravimetrik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki (1-rasm) 380°C da kaolinit va boshqa gil minerallar tarkibidagi strukturaviy suvni chiqishi bilan bog'liq bo'lgan keskin massa yo'qolishi boshlanadi. Massa yo'qotish bilan birga keladigan endotermik jarayon 580°C da maksimal darajaga yetadi va 660°C dan keyin sekinlashadi. 1080°C da ham massa yo'qotilishi kuzatildi. Ustki qatlamning mineralogik tarkibi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, bu jarayonni muskovitning parchalanishi bilan bog'lash mumkin. 1150°C dan keyin massaning o'zgarishi kuzatilmaydi.




1-rasm. Ustki qatlam jinsining derivatogrammasi.


Ustki qatlamning mineralogik tarkibi rentgen fazasi tahlili asosida aniqlangan. Xom ashyoning tabiiy va 1050°C da kuydirilgan holatining difraktogrammasi 2-rasmda keltirilgan.

Difraktogramma tahlili orqali ustki qatlam jinsida quyidagi minerallarning mavjudligini aniqlashga imkon berdi: (M)muskovit (10,29; 9,89; 4,97; 4,44; 2,55 Å), (K)kaolinit (7,12; 3,56 Å), (Q)kvarts (4,24; 3,33; 1,813; 1,539; 1,372 Å), (A)dala shpati (3,18 Å) (2.1 a-rasm).

1050 °C da kuydirilgandan so'ng (M)mullit reflekslari paydo bo'ldi (5,40; 3,42; 3,39; 2,89; 2,70; 2,55; 2,28; 2,21; 2,13 Å) va (Q)kvarts reflekslari saqlanib qoldi (4,24; 3,33; 1,813; 1,539; 1,372 Å) (2.1b-rasm).




a




b

2-rasm. Jardanak koni ustki qatlamining xomashyosi (a) va 1050 °C da kuydirilganining (b) difraktogrammasi

Ustki qatlamning tabiiy holatidagi va termal ta'sirdan keyingi tuzilishining elektron-mikroskopik usulda tekshirish natijalari 3-rasmda keltirilgan.





3-rasm. Jordanak koni ustki qatlamining tabiiy(a) va 1050°C da kuydirilgandagi (b) elektron-mikroskopik tasviri va element tahlili

Yuqorida keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, ustki qatlamning tuzilishi bir xil bo'lib, umumiy kulrang fonda bir xilda tekis taqsimlangan oq rangli prizmatik qo'shimchalar bilan ajralib turadi. Nisbiy bir xillik 1050°C haroratda kuydirilgandan keyin ham saqlanib qolgan, shu bilan birgalikda g'ovaklar paydo bo'ladi.

Elektron mikroskopning spektral tahlili ma'lumotlari ustki qatlamda rentgenflyuorestsent spektrometri tomonidan aniqlangan mavjud elementlar bilan bir xil ekanligini ko'rsatadi.

Toshkent soz tuprog'ining fizik-kimyoviy xossalari va tuzilishini tadqiq qilish.

Toshkent viloyatining o'rta Chirchiq tumanidagi soz tuproqning qurilish g'ishtini ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha xossalarni o'rganish natijalari keltirilgan. 2-jadvalda Toshkent viloyatidagi soz tuproqning o'rtacha kimyoviy tarkibi keltirilgan.

2-jadval


Toshkent viloyatidagi soz tuproqning kimyoviy tarkibi

Oksidlarning massa ulushi, %							
SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	CaO	MgO	Na ₂ O	K ₂ O	Y.Y.
53,0	12,19	4,62	11,11	2,86	2,46	2,14	11,0

Toshkent soz tuprog'ining o'rtacha plastiklik qiymati 6,1 ga teng hisoblanib, kam plastiklikni namoyon qiladi.

Toshkent soz tuprog'ining rentgen-fazali tahlili quyidagi minerallar borligi ko'rsatdi (4a-rasm): (C) slyuda (4,41; 3,30 Å), (S) kalsit (3,00 Å), (G) getit (4,19; 2,44; 2,66 Å), (A) anortit (3,15; 3,18); 3,20 Å, (K) kaolinit (6,9 Å), (Q) kvars (3,34 Å). Keltirilgan difraktogrammada ko'rinib turibdiki, tabiiy Toshkent soz tuprog'ida asosiy faza slyuda bo'lib, so'ngra kalsit va getitdir.


Kuydirilgan soz tuproqning tahlili shuni ko'rsatdiki, (4b-rasm) 1050°C haroratda kuydirish jarayonida (Q) kvars reflekslari mavjud (4,26; 3,34; 1,820; 1,376 Å), (P) dala shpati hosil bo'ladi d = 4,04; 3,23; 3,21; 3,18 Å va (D) diopsid reflekslari d = 2,99; 2,95; 2,90; 2,550; 2,516; 2,132 Å paydo bo'ladi.



4-rasm. Toshkent soz tuprog'ining tabiiy (a) va 1050°C da kuydirilgandagi (b) difraktogrammasi.


IQ-spektrlarini tahlili ma'lumotlari rentgenografiya natijalari bilan solishtirish, tabiiy soz tuproqda bir necha turdagi aluminosilikatlar - slyuda, kaolinit, dala shpatlari, shuningdek kalsit va temir minerallari mavjudligini ko'rsatdi. Kuydirishdan so'ng materialda kvars, diopsid va dala shpati borligi aniqlandi. Material kuydirilganda, unda shishasimon komponentlar mavjudligini ko'rsatadi.

Toshkent soz tuprog'ining derivatogrammasi 5-rasmda keltirilgan. Egri chiziqlar tahlili intensiv haroratlarni 2 ta diapazonda joylashuv joyi mavjud ekanligini ko'rsatadi. 1-diapazon joylashuvi 105-537°C haroratlar oralig'iga va 2-diapazon esa 540-980°C haroratlar oralig'iga to'g'ri keladi.



5-rasm. Toshkent soz tuprog'ining derivatogrammasi.


Asosiy massa yo'qotilishi 340-950°C oralig'ida sodir bo'ladi. Bu holda, asosiy massaning 9,8% ya'ni 7,5 mg massa yo'qotiladi. 990°C haroratdan keyin massaning o'zgarishi kuzatilmaydi.



a

b

6-rasm. Tashkent soz tuprog'ining tabiiy (a) va 1050°C da kuydirilgandagi (b) elektron-mikroskopik tasviri.



7-rasm. Tashkent soz tuprog'ining element tarkibi.


Hosil bo'lgan Tashkent soz tuprog'ining elementsimon tarkibi kutilgan kimyoviy tarkibga mos keladi.

To'rtinchi «Jardanak koni ustki qatlam jinslari asosida qurilish g'ishtlari tarkibini ishlab chiqish» nomli bobda ustki qatlam jinslari-Tashkent soz tuprog'i tarkibidagi qurilish g'ishtlarining fizik-texnik va texnologik xususiyatlarini o'rganish natijalari yoritilgan.

Jardanak konining ustki qatlami tarkibida karbonatlar va eruvchan tuzlarning yo'qligi bilan ajralib turadi. Ustki qatlam uchun erish harorati oralig'i 1200-1350°C, Tashkent soz tuprog'i uchun esa 950-1050°C ni tashkil qiladi. G'ishtlarning pishish haroratini pasaytirish uchun sirt tuprog' jinslariga Tashkent soz tuprog'i qo'shilgan tarkiblar ustida izlanishlar olib borildi. Shu bilan bir qatorda tarkiblarni


mustahkamlik, sovuqqa bardoshlilik va namlik yo'qolish hisobiga hajmiy qisqarish kabi xossalari ustida ham izlanishlar olib borildi.

Suvni yutuvchanlik miqdori materialning pishish haroratiga bog'liqligi sababli, suvni yutish miqdorining tarkibga bog'liqligi aniqlangan va 8-rasmda keltirilgan. 700, 1000 va 1050°C ta'sir qilganda suvning yutilishining o'zgarishi keltirilgan. Suv yutuvchanlikni eng kichik qiymati 1050°C harorat ta'sir qilganda hosil bo'ladi. Tarkibdagi soz tuproq miqdorining ortishi bilan suv yutuvchanlik ham ortadi. Ushbu qonuniyat butun jarayon intervalida saqlanib qoladi. Ta'kidlash mumkinki, 10% soz tuproqni o'z ichiga olgan g'ishtning suvni yutuvchanligi faqat ustki qatlam jinsidan tarkib topgan g'ishtning suv yutuvchanligi bilan mos keladi va 20% soz tuproqni o'z ichiga olgan namunalarda bir miqdor ortadi. G'isht tarkibidagi soz tuproqning miqdori ortishi bilan suv yutuvchanlik ko'rsatgichi ortishining ijobiy tomonlari mavjud bo'lib, u issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlarining va qurilish qorishmasini o'zaro mustahkamligini oshishiga bog'liqdir.





8-rasm. G'ishtning suv yutuvchanlik xossasini tarkibga va kuydirish haroratiga bog'liqligi.

1050°C haroratda kuydirilgandan keyin g'ishtlarni xossalari tarkibga bog'liqligi 9-rasmda keltirilgan.



9- rasm. G'isht xossalari tarkibga bog'liqligi.


Ishlab chiqarilgan qurilish g'ishtlarining asosiy tarkibiy qismlari (M)mullit va (Q)kvarsdir (10-rasm).



10-rasm. Tarkibida 10% soz tuproqni o'z ichiga olgan g'ishtning 1050°C haroratda kuydirilgandagi difraktogrammasi.

11-rasm. Tarkibida 10% soz tuproqni o'z ichiga olgan g'ishtning 1050°C haroratda kuydirilgandagi elektron-mikroskopik tasviri.

Optimal tarkibdagi qurilish g'ishtlarining tuzilishi elektron-mikroskop usuli yordamida o'rganildi, bu strukturaning bir xilligi va g'ovakligini bir xil o'lchamda ekanligini ko'rsatdi (11, 12-rasm).



12-rasm. 10% soz tuproq, 90% ustki qatlam jinsi tarkibli g'ishtdagi elementlarning taqsimlanishi.

Turli tarkibdagi tajriba namunalarini fizik-mexanik va texnologik xossalari 3-jadvalda keltirilgan.

Qurilish g'ishti tarkiblari o'zgarishining fizik-mexanik xossalari ta'siri


№	Komponentlar, %		Xossalari			
	Jardanak koni ustki qatlami	Toshkent soz tuprog'i	suv yutuvchanligi, %	Umumiy qisqarishi, %	Sovuqqa bardoshlilik, F	G'isht markasi, M
1	100		12,3	7,8	75	175
2	90	10	12,4	7,7	100	200
3	80	20	13,0	7,3	100	200
4	70	30	13,7	6,9	75	150
5	60	40	14,6	6,3	75	150
6	50	50	15,7	5,4	50	125
7	40	60	16,1	5,2	50	100
8	30	70	16,9	5,1	35	100
9	20	80	19,4	4,7	35	75

Qurilish g'ishtlari xossalari tarkibiga bog'liqligini aniqlash uchun olingan natijalarni tahlil qilib, shunday xulosa qilish mumkinki, tarkibida 10-20% soz tuproq, qolgan qismi esa Jardanak konidagi ustki qatlamni o'z ichiga olgan tarkib optimal tarkiblar hisoblanadi. Ushbu tarkib nisbatan minimal miqdorda namlik yo'qolish hisobiga hajmiy qisqarish, suv yutuvchanlik, yuqori ko'rsatgichli mustahkamlik va sovuqqa bardoshlilikni ta'minlaydi. Shuni qayd etish mumkinki, olingan materialning mustahkamlik va sovuqqa bardoshlilik bo'yicha ko'rsatgichlari GOST O'zR № 3255 Sopol g'isht va toshlar (Texnikaviy shartlar) talablariga to'la mos keladi.

Dissertatsiya ishining beshinchi bobida "Jardanak konining ustki qatlami asosida qurilish g'ishtlarini ishlab chiqarish texnologik sxemasini ishlab chiqish", Jardanak konining ustki qatlami va mahalliy soz tuproqdan yuqori sifatli qurilish g'ishtlarini ishlab chiqarish texnologik sxemasi ishlab chiqildi.

Jardanak koni ustki qatlami asosida plastik qoliplash usulida qurilish g'ishtlarini ishlab chiqarishning texnologik sxemasi 13-rasmda keltirilgan.


Tuproq xomashyosi omboridan tuproq 1A va soz tuproq 1B tebranma taminlagich(2)dan elevator(3) orqali valli maydalagich(4)ga tushadi. Maydalangan xom ashyo saqlovchi bunker(5)ga tushadi va hisoblangan miqdordagi tuproq va soz tuproq aralashtirgich(6)ga tushadi. Aralashtirgichga plastik massa hosil qilish uchun suv qo'shiladi. Aralashtirgichdan chiqqan plastik massa ekstruder(7)ga yuboriladi, unda plastik brus vakuum ostida chiqariladi va kerakli o'lchamdagi g'ishtlar kesiladi. Shakl berilgan yarim tayyor mahsulotlar vagonetkalariga avtomatik yuklanadi(8) va tunelli quritgichga yuboriladi. To'ldirilgan vagonetkalar qo'shimcha yo'lda(10) ko'zdan kechiriladi. Qurilgan yarim tayyor mahsulotlar kuydirish uchun tunelli pech(11)ga yuboriladi. Tayyor mahsulotlar saralanadi, qadoqlanadi(12) va tayyor mahsulotlar ombori(13)ga yuboriladi, u yerdan xaridorlarga maxsus transport orqali yetkaziladi.



13-rasm. Plastik qoliplash usulida qurilish g'ishti ishlab chiqarishning texnologik sxemasi: 1-xom ashyo ombori; 2-tebranma taminlagich; 3-elevator; 4-valli maydalagich; 5-bunker va dozator; 6-aralashtirgich; 7-vakuum press va avtomat kesgich; 8-Avtomat shtabel-taxlovchi sistema; 9-tunelli quritgich; 10-vagonetkalar uchun qo'shimcha yo'l; 11-tunelli pech; 12-taxlash va o'rash; 13-tayyor mahsulot ombori; 14,15-transport orqali yetkazish.

Tuproq xomashyosi omboridan tuproq 1A va soz tuproq 1B tebranma taminlagich(2)dan elevator(3) orqali valli maydalagich(4)ga tushadi. Maydalangan xom ashyo saqlovchi bunker(5)ga tushadi va hisoblangan miqdordagi tuproq va soz tuproq aralashtirgich(6)ga tushadi. Aralashtirgichga plastik massa hosil qilish uchun suv qo'shiladi. Aralashtirgichdan chiqqan plastik massa ekstruder(7)ga yuboriladi, unda plastik brus vakuum ostida chiqariladi va kerakli o'lchamdagi g'ishtlar kesiladi. Shakl berilgan yarim tayyor mahsulotlar vagonetkalariga avtomatik yuklanadi(8) va tunelli quritgichga yuboriladi. To'ldirilgan vagonetkalar qo'shimcha yo'lda(10) ko'zdan kechiriladi. Quritilgan yarim tayyor mahsulotlar kuydirish uchun tunelli pech(11)ga yuboriladi. Tayyor mahsulotlar saralanadi, qadoqlanadi(12) va tayyor mahsulotlar ombori(13)ga yuboriladi, u yerdan xaridorlarga maxsus transport orqali yetkaziladi.

Jardanak koni ustki qatlami asosida yarim quruq usulda qurilish g'ishtlarini ishlab chiqarishning texnologik sxemasi 14-rasmda keltirilgan.



14-rasm. Yarim quruq presslash usulida qurilish g'ishti ishlab chiqarishning texnologik sxemasi: 1-jo'vali dezintegrator; 2-tebranma elak; 3- jo'vali dezintegrator; 4- tebranma elak; 5-dozator; 6-FPAKM filtr-press; 7-dozator; 8-sharli tegirmon; 9-nasos; 10-purkovchi quritgich; 11-dozator; 12-richagli press; 13-vagonetka; 14-tunelli pech; 15-qadoqlash.

Jardanak koni ustki qatlam tuproq jinsi ombordan jo'vali dezintegratorga yetkaziladi, unda maydalash paytida toshli qo'shimchalar ajratib chiqariladi. Qolgan toshli qo'shimchalar elakda ajratiladi. Toshkent soz tupog'idan xomashyo tayyorlash jarayoni o'xshash sxemada o'tadi. Faqat, xom ashyo FPAKM filtr-pressida yuviladi. Tayyorlangan boshlang'ich material xom ashyolarining hisoblangan miqdori talab etilgan tarkib va namlikdagi shliker massasini olish uchun sharli tegirmonga tushadi. Sharli tegirmonda maydalash jarayonida bir xil shliker massasi olinadi, so'ngra press-kukunini tayyorlash uchun purkovchi quritgichga yo'naltiriladi. Purkovchi quritgich berilgan granulometrik tarkibdagi va kerakli qovushqoqlikdagi press-kukunini olinishini ta'minlashi kerak. Purkovchi quritgichi shlikerni suvsizlantirish va materialni maydalash operatsiyalarini birlashtiradi. Namligi 39-40% bo'lgan shliker purkovchi quritgich ishchi kamerasiga bosim ostida kiritiladi. Ishchi kamerasiga kiradigan tutun gazining harorati 1100-1250°C, ish kamerasining yuqori qismidagi harorat 150-180°C, chiquvchi gazlarning harorati 75-80°C ni tashkil etadi. Olingan press-kukunining namligi 6,5-8% ni tashkil etadi.

Press kukuni mayin kukunsimon massa hisoblanadi, ikki tomonlama tutkichli va ikki bosqichli presslash uchun kelib tushadi. Presslash jarayonida havo chiqarib tashlanadi, havo kiruvchi kanallar yopiladi va mineral kukunlarning qaytarilmas deformatsiyasiga erishiladi. Presslashning optimal bosimi 35-40 MPa oralig'idaligi aniqlanadi. Ikki bosqichli presslash, presslash bosimi olib tashlanganidan keyin yarim tayyor mahsulot hajmining minimal o'sishini ta'minlaydi.

Mahsulotlarning oz miqdordagi namligi quritish va qizdirish jarayonini tunelli pechda birlashtirishga imkon beradi.

“Asia ceramica invest” mas’uliyati cheklangan jamiyati g’isht zavodida tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyasini o‘rganish natijalariga ko‘ra qurilish g’ishtlarining tajriba partiyasi ishlab chiqarildi.

Ishlab chiqarilgan optimal tarkibli qurilish g’ishtlari 1 NF normal ko‘rinishli (butun) : 250x120x65, oddiy, mustahkamligiga ko‘ra 200 M, sovuqqa bardoshlilikiga bo‘yicha 100F, o‘rtacha zichlik sinfiga ko‘ra – 2,0, suv yutuvchanligiga ko‘ra – 6% dan yuqori bo‘lib, GOST 530-2012 keramik g’isht va toshlar (umumiy texnik shartlar) ga to‘la javob beradi.

XULOSA

1. Jardanak koni ustki qatlamining kimyoviy (mass.%,: 44,9SiO₂; 28,36Al₂O₃; 5,94Fe₂O₃; 1,58CaO; 0,39MgO; 0,65Na₂O; 5,45K₂O; 12,7 K.Y.) va mineralogik (muskovit, kaolinit, kvarts, dala shpati) tadqiq qilindi.
2. Ustki qatlamga yuqori haroratda ishlov berildi va 900-1350°C oralig‘ida fazaviy va strukturaviy o‘zgarishi aniqlandi. 1000°C dan yuqori haroratdagi fazalar asosan mullit va kvars.
3. Toshkent soz tuprog‘ining Jardanak koni ustki qatlamiga qo‘shilishi pishish haroratining 1050-1150°C darajagacha tushishiga olib kelishi tasdiqlandi.
4. Yuqori ekspluatatsion xossalarni ta‘minlovchi 80-90% Jardanak koni ustki qatlami va 20-10% Toshkent soz tuprog‘idan iborat qurilish g’ishtlarining optimal tarkibi aniqlandi. G’isht tarkibida kalsiy minerallarining minimal miqdori ekspluatatsiya jarayonida sho‘ralash yuzaga kelmasligini ta‘minlaydi, bu ko‘rsatgichlar ushbu olingan g’ishtni boshqa soz tuproq va soz tuproq jinslari asosida olingan g’ishtlardan ajratib turadi.
5. Optimal tarkibli qurilish g’ishtlarining fazaviy va strukturaviy xususiyatlari aniqlandi. Olingan g’ishtning asosiy fazalarida kvars, mullit bo‘lib, bu materialning mustahkamligi va sovuqqa bardoshlilikiga ijobiy ta‘sir qiladi.
6. «Asia ceramica invest» MChJ zavodi sharoitida Jardanak konining ustki qatlami asosida yuqori ekspluatatsion xususiyatga ega qurilish g’ishti ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligi isbotlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.04.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ХАМИДОВА ХАБИБА МУРАТ КИЗИ

**РАЗРАБОТКА СТРОИТЕЛЬНОГО КИРПИЧА С ВЫСОКИМИ
ЭКСПЛУАТАЦИОННЫМИ СВОЙСТВАМИ НА ОСНОВЕ МЕСТНЫХ
СЫРЬЕВЫХ МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

02.00.15 – Технология силикатных и тугоплавких неметаллических материалов

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2019.3.PhD/Т1285

Диссертация выполнена в Ташкентском химико-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.fkti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант: Арипова Мастура Хикматовна
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Искендеров Ахмед Максетбаевич
доктор технических наук, профессор
Шерматов Жавохир Зафарович
доктор технических наук, (PhD)

Ведущая организация: Ташкентский архитектурно-строительный
университета

Защита состоится «2» 05 2024 г. в «9⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.04.01 при Ташкентский химико-технологического институте по адресу: 100011, г. Ташкент, Шайхонтаурский район, ул. А.Навои, 32. Тел.: (+99871) 244-79-20; факс: (+99871) 244-79-17; e-mail: fkti_info@edu.uz.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского химико-технологического института за № 779, с которой можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре (100011, г. Ташкент, Шайхонтаурский район, ул. А.Навои, 32. Тел.: (+99871) 244-79-20, факс: (+99871) 244-79-17, e-mail: fkti_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «29» 03 2024 года.
(протокол рассылки № 419 от «29» 03 2024 г.).



С.М. Турабджанов
Председатель Научного совета по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

Х.И. Кадиров
Ученый секретарь Научного совета по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

З.А. Бабаханова
Заместитель председателя Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время материалы, полученные на основе чистых реагентов, широко используются в мире космонавтики, ракетостроения, авиастроения, машиностроения, химии, медицины и домашнего хозяйства. Использование высокоэффективных материалов в сфере строительства имеет большое значение для улучшения устойчивости к внешним воздействиям и декоративного состояния современных зданий и сооружений. В развитых странах США, Китае, России, Японии достигнуты определенные успехи в производстве строительного кирпича с высокими эксплуатационными характеристиками, особое внимание уделяется внедрению ресурсо- и энергосберегающих технологий.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на получение строительного кирпича с высокими эксплуатационными характеристиками. В связи с этим, особое внимание уделяется разработке рецептуры кирпича без высолов, изучению его химического и минералогического состава, расширению сырьевой базы, повышению устойчивости к воздействиям окружающей среды, совершенствованию и апробацию технологии получения строительного кирпича с высокими эксплуатационными характеристиками.

В результате широкомасштабных мер, реализованных в нашей республике в последние годы, достигаются определенные научные и практические результаты в части модернизации предприятий химической промышленности и промышленности строительных материалов, расширения конкурентоспособных видов продукции, создания новых запасов сырья, развития технологии производства импортозамещающей продукции на их основе. Стратегия развития нового Узбекистана определяет важные задачи «удвоения производства строительных материалов путем продолжения промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте». Для этих целей необходимо определить влияние вносимой ташкентской глинистой почвы на физико-химические и технологические свойства верхнего слоя местного Джарданакского рудника, расширить сырьевую базу и повысить качество строительных материалов, а также разработка промышленных технологий производства строительного кирпича с высокими эксплуатационными характеристиками имеет большое значение.

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени реализации задач, определенных в нормативных документах - Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», ПП-139 от 21 февраля 2022 года, «О дополнительных мерах по поддержке жилищного строительства и строительной отрасли», ПП-4302 от 1 мая 2019 года, «Дальнейшее развитие производственной кооперации и расширение производства продукции, пользующейся повышенным спросом», ПП-4335 от 23 мая 2019 года «О

дополнительных мерах по опережающему развитию промышленности строительных материалов» и другие нормативные акты, связанные с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологии Республики Узбекистан: VII. Химическая технология и нанотехнология.

